

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ
HOKIMIYATCHILIGI**

Ilmiy rahbar: Azamova Sitora Ayonovna
SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Umrzoqov Azizbek
SHDPI Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va
huquq ta‘limi yo‘nalishi I-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligining qay darajada rivojlanganligi shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligining o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Davlat, hokimiyat, xalq, qonun, huquq, konstitutsiya, xalq hokimiyatchiligi.*

Xalq hokimiyatchiligi—demokratiya so‘zining tarjimasi bo‘lib, yunoncha(demos)—xalq,(kartos)—hokimiyat deganda ma'nolarni anglatadi. Xalq hokimiyatchiligi barcha insonlarning tengligi va erkinligini tan olishda, aholini turli jamoat tashkilotlariga birlashish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini xalq ishtirokida saylash , davlat hokimiyatining taqsimlanishi va xalqining davlatni boshqarishda ishtirok etishiga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi"deb nomlangan ikkinchi bobi davlatimizning demokratik tartibini ifodalaydi va O‘zbekiston suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi.

Konstitutsiyamizning 7-moddasiga binoan "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati Xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolatining bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi."deganda qoida mavjud. Demak,O‘zbekistonda davlat Xalq irodasini ifodalaydi va uning manfaatlariga xizmat qiladi.

O'zbekistonda Xalq hokimiyatchiligi ikki shakllanishi amalga oshiriladi:

1. Bevosita demokratiya— fuqarolarning davlat ishlarini hal qilishga to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi.

2. Bilvosita demokratiya—fuqarolarning davlat ishlarini hal qilishga o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar ishtirok etishi.

Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri —referendumdir. Oldingi konstitutsiyamizning 9–moddasida: Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy og'izga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibini qonun bilan belgilanadi, deganda qoida belgilangan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda ham ya'ni shu modda o'z aksini topgan.

Referendum so'zining ma'nosi —lotinchadan olingan bo'lib :ma'lum qilinishi lozimki bo'lgan narsa degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligining amalga oshirishning ikkinchi shakli—bu fuqarolarning davlat ishlarini hal etishi o'z saylagan vakillari ishtirok etishidir.

Konstitutsiyasining 10–moddasida : O'zbekiston xalq nomimdan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borish mumkin deb belgilangan. Demak, O'zbekiston xalqining o'z ichidan munosib nomzodlarni tanlab , ularning Oliy Majlisga o'zining vakillari sifatida saylaydi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida Prezidenti xalq tomonidan saylanadi. Yurtimizda demokratiyaning rivoj topishi uchun ham xalq hokimiyatchiligining ahamiyati katta sanaladi. Bunga misol tariqasida demokratiya shakllangan davlatlarga nazar sotadigan bo'lsak aynan shu davlatlarda xalq hokimiyatchiligini rivojlanganini ko'ramiz.

Xalq hokimiyatchiligini rivojlantirish bu faqat davlatlar, yo bo'lmasa hokimiyatga, yoki xalqqa bog'liq masalalari emas. Balki bu masalalari hammaga bog'liqdir, misol tariqasida, aytishimiz mumkinki, davlat tomonidan ma'lum bir qonun qabul qilinmoqda va bu qonun xalq muhokamasiga ya'ni referendumga qo'yildi. Ammo, bu jarayonlarning xalq to'liq ishtirok etmayapti, befarq

munosabat bildiryapti va ya'ni bu jarayon xalq hokimiyatchiligining inqiroziga olib kelmoqda.

Vakillik demokrstiyasining rivojlanishida, siyosiy partiyalar nodavlat tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Siyosiy partiyalar nodavlat tashkilotlar partiyalarsiz,jamoatchilik harakatlarisiz respublikada Vakillik demokratiyaning tasavvurlar qilib bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, xalq hokimiyati rivojlangan davlatlar qancha rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Agarda bizda ham xalq hokimiyatchiligi rivojlansa biz ham xuddi rivojlangan davlatlar qatoriga ko'ramiz. Shuning uchun ham har bir yurtimiz fuqarosi referendumlarga befarq bo'lmagan holda faol qatnashisgimiz kerak.

2023-yilning 30-aprelida bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz qabul qilindi. Aynan o'shbu konstitutsiyamiz oldingisiga nisbatan , yanada mukammal tarzda to'ldirildi. Aynan shu kuni o'tkazilgan referendumda xalqimiz faol ishtirok etishdi. Agar xalqimiz har safari Saylov va referendumlarga faol qatnashib davlat ishlariga befarq bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq aytisha bi'lsa davlatimiz yanada rivojlanganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Каримов.И.А.Узбекистон XXI аср бусагасида.-Т.:Узбекистан, 1997.174–бет.
- 2.KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ darslik —Toshkent: TDYU,2020.—188 b .
- 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]Rasmiy nashr.—Toshkent:"O'zbekiston "nashriyoti, 2023.—120b.
- 4.Karimov.I.A."Yuksak ma'naviyat— yingilmas kuch"
5. WWW.//ziyonetuz.